

BOG'LOVCHI SO'Z TURKUMINI MAKTAB TA'LIMIDA SAMARALI O'QITISH

Mamatmurodova Shahzoda O'ktan qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyoti ta'limi fakulteti
3- bosqich talabasi. Telefon raqami : 919624929*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog'lovchilarni o'qitishga oid metodik tavsiyalar berilgan.”Bog'lovchi so'z turkumini maktab ta'limalda samarali o'qitish” doirasida 7-sinf o'quvchilariga topshiriqlar ishlab chiqilgan. Maqola umumta'lim maktab o'qituvchilariga va OTM talabalariga o'qish tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: bog'lovchi, biriktiruv bog'lovchisi,zid bog'lovchi, ayiruv bog'lovchi, inkor bog'lovchi ,teng va ergashtiruvchi bog'lovchi.

Hozirgi kunda ona tilimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida “Milliy o'zligimiz timsoli, ma'naviyatimiz asosi bo'lgan ona tilimizga e'tibor yanada kuchaytiriladi. Albatta, chet tilini bilish – zamon talabi, ammo ona tilini bilishni majbur qilish kerak”, – deb aytgan so'zlaridan bilib olishimiz mumkin. Shuning uchun ham ona tilimizning grammatik mavzularidan biri bo'lgan “Bo'g'lovchi”ni ham nazariy, ham amaliy tomonlama ko'rib chiqamiz.

Bog'lovchilar gapdagi uyushgan bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'laydigan yordamchi so'zlardir. Masalan: Haqiqat va to'g'rilikni sevuvchi odamlar doimo vijdon amriga bo'ysunadilar.

Bog'lovchilar qo'llanishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

1.Yakka bog'lovchilar-uyushgan bo'laklar va ayrim gaplar orasida

Yakka holda qo'llaniladi: va, hamda, ammo, lekin, biroq, balki, holbuki, vaholanki, yoki, yoxud, yo, agar, gar, agarda, basharti, chunki ,garchi, go'yo, go'yoki, -ki, -kim;

2. Takror bog‘lovchilar-bir gapda ikki yoki undan ortiq o‘rinda gap bo‘laklari bilan, shuningdek, qo‘shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi: dam..dam, ba’zan...ba’zan, ham...ham, bir...bir, yo...yo, goh...goh, xoh...xoh.

Bog‘lovchilar grammatik jihatdan o‘zgarmaydi va lug‘aviy ma’noga ham ega emas. Ular o‘zi bog‘lagan ayrim so‘zlar va sodda gaplarni o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini, shuningdek, shu munosabatlarning xilini ko‘rsatadi. Shunday vazifasiga ko‘ra bog‘lovchilar teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilariga bo‘linadi.

1.Teng bog‘lovchilar-gap bo‘laklarini va sodda gaplarni teng munosabatda bog‘laydi. Ular quydagi turlarga bo‘linadi:

a)**biriktiruv bog‘lovchisi-** va hamda so‘zlari;

b)**zidlov bog‘lovchisi-** lekin, ammo, biroq so‘zlari;

d)**ayiruv bog‘lovchisi-** dam..dam, ba’zan...ba’zan, ham...ham, bir...bir, yo...yo, goh...goh, xoh...xoh;

e)**inkor bog‘lovchisi-** na so‘zi.

2.Ergashtiruvchi bog‘lovchilar-ergashgan qo‘shma gap tarkibidagi qismlarni ergashtirib bog‘laydi. Quyidagi turlarga bo‘linadi:

a)aniqlov bog‘lovchilari- ya’ni, -ki, -kim;

b)sabab bog‘lovchilari-chunki, shuning uchun;

d)shart bog‘lovchisi- agar, basharti, garchi, mobodo;

e)chog‘ishtiruv bog‘lovchilari- go‘yo, go‘yoki,¹

Metodik adabiyotlarda bog‘lovchilarni o‘qitishda turlicha topshiriqlar va usullar ishlab chiqilgan. Topshiriqlar, asosan, bog‘lovchi so‘z turkumini boshqa yordamchi so‘z turkumlarida farqlashga doir berilgan. Misol tariqasida: Boqijon To‘xliyevning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida bog‘lovchi so‘z turkumini o‘qitish bo‘yicha quydagi topshiriq berilgan:

Matnni o‘qing. Bog‘lovchilarni topib, ular bajarayotgan vazifasini tushuntiring . Ajratilgan bog‘lovchilar yordamida so‘z birikmalari, gaplar tuzing va ijodiy matn yarating.

¹ R.Sayfullayeva.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.O‘quv qo‘llanma.-T., “Fan va texnologiya”,2009.- 416.274-bet

Namuna: Gul ekish uchun yer yumshoq hamda yaxshi ishlangan bo‘lishi, lekin tuproq kukundek mayda bo‘lmasani ma’qul. Shunday qilinsa yomg‘ir yoqqanda yer qatqaloq bo‘lib qolmaydi.²

Dilorom Yo‘ldoshevaning “O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi” qo‘llanmasida quydagicha o‘qitish usuli berilgan :

“Bog‘lovchi” ta’limi quydagilar asosida o‘tilishi belgilangan: —Bog‘lovchilar haqida umumiy tushuncha;

Teng bog‘lovchilarning turlari: biriktiruv bog‘lovchilari, ayiruv bog‘lovchilari, zidlov bog‘lovchilari.

“Ergashtiruvchi bog‘lovchilarning turlari: aniqlov bog‘lovchilari, sabab bog‘lovchilari, shart va chog‘ishtiruv bog‘lovchilari va ularning qo‘llanishi”.

Mazkur qo‘llanmada bo‘glovchi yuzasidan “O‘rnida qo‘lla“ metodi o‘tkaziladi.

O‘yin shartiga ko‘ra, 4-5 daqiqa ichida har bir guruh o‘zlariga mo‘ljallangan rasm asosida ijodiy matn tuzishi, matnda, albatta, yordamchi so‘zlardan foydalanishi va tuzilgan ijodiy matn tarkibidagi uchta gap rasm pastida berilgan chizmaga mos kelishi kerak.³⁴

“Bog‘lovchi” guruhi:



_____ va _____, biroq _____.
_____, ham, _____ ham ___, u, _____.
Ba’zan _____, ba’zan _____.

Maktabda hozirda amalda bo‘lgan 7- sinf ona tili darsligida bog‘lovchilar mavzusi “Kurash- milliy sport turi” nutqiy mavzusida berilgan. Bog‘lovchi so‘z turkumi haqida

² B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.:2006. 196 b.134-bet.

³ Yuldasheva Dilorom Nigmatovna O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. - 424 b.

qisqacha nazariy ma'lumotlar berilgan va uni mustahkamlash uchun berilgan topshiriq quyidagicha:⁵



Quyidagi tushunchalar asosida gaplar tuzing. Bog'lovchilardan foydalaning.

kurash bo'yicha kubokni yutib oldi

harakatlaridan ko'ngli to'lmadi

yurt bayrog'ini baland ko'tardi

yoshlarni mensimadi

u bilan kurashish armon bo'lib qoldi

boshi og'rib turgan edi

hammani yenga olaman deb o'yladi

kubokni yuta olmadi

Men bu topshiriqlarga qo'shimcha tarzda bog'lovchilarni o'qitishga doir yordamchi topshiriq tavsiya etmoqchiman.

Topshiriq. Matndagi bo'sh joylarga bog'lovchilarning mosini qo'ying.

Do'stlik — bu inson hayotidagi eng bebafo tuyg'ulardan biridir, _____ chin do'st har doim siz bilan birga bo'ladi: quvonchda ham, g'amda ham. Ba'zida biz do'stlarimiz bilan tortishib qolamiz, _____ agar do'stlik chinakam bo'lsa, bu kabi kelishmovchiliklar uzoqqa cho'zilmaydi. Do'stlar bir-birini kechira oladi, _____ ular har doim bir-birini tushunishga harakat qiladi. Hayotda har kimning o'z yo'li, o'z muammolari bor, _____ do'sting yoningda bo'lishi bu yo'lni yengillashtiradi. Do'st sening yuragingdagi gapni so'zsiz tushunadi, shuningdek, u doimo yordam qo'lini cho'zishga tayyor bo'ladi.

Do'st bilan har doim ochiqchasiga gaplashish, fikr almashish zarur, aks holda tushunmovchilik paydo bo'lishi mumkin. Kimdir do'stlikni faqat quvonchli paytlarda eslaydi, _____ haqiqiy do'stlik sinovli kunlarda namoyon bo'ladi.

Bu topshiriq o'quvchilarda nazariy ma'lumotni amaliy mashq orqali mustahkamlashga va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi.

Fikrimni xulosalar ekanman, bog'lovchi so'z turkumini maktab ta'lilda samarali va qiziqarli olib borish fan o'qituvchisining vazifasidir. Bog'lovchilarni o'qitish orqali

⁴ Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. T. 2022.

o‘quvchilar nutqida takror so‘zlardan foydalanish kamayadi, sodda gaplarni bir necha bog‘lovchi variantlari bilan bog‘lay olish ko‘nikmasi shakllanadi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati :

1. R.Sayfullayeva.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.O‘quv qo‘llanma.-T., “Fan va texnologiya”,2009.- 416.274-bet
2. B.To‘xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova.O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.O‘quv qo‘llanma.Ozbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, T.:2006. 196 b.134-bet.
3. Yuldasheva Dilorom Nigmatovna O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida) [Matn] : darslik / D.N. Yuldasheva .-Buxoro: OOO "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021. - 424 b.
4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. T. 2022.